

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.FM.01.18 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MANNAPOVA KAMOLA ALIMDJANOVNA

**O‘ZGRAVITATSIYALANUVCHI DISKNING TOJINI HISOBGA OLGAN
HOLDA NOCHIZIQLI NORADIAL TEBRANISHLARI**

01.03.02 – Kosmos fizikasi va astrofizika

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Mannapova Kamola Alimdjanovna

O‘zgravitatsiyalanuvchi diskning tojini hisobga olgan holda nochiziqli
noradial tebranishlari 3

Маннапова Камола Алимджановна

Нерадиальные нелинейные колебания самогравитирующего диска с
учетом гало 19

Mannapova Kamola Alimdjanovna

Non-radial nonlinear oscillations of a self-gravitating disk taken into account
for halo 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 41

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.FM.01.18 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MANNAPOVA KAMOLA ALIMDJANOVNA

**O‘ZGRAVITATSIYALANUVCHI DISKNING TOJINI HISOBGA OLGAN
HOLDA NOCHIZIQLI NORADIAL TEBRANISHLARI**

01.03.02 – Kosmos fizikasi va astrofizika

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirlar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM969 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasida (www.ik-fizmat.nuu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirtadjiyeva Karamat Taxirovna,
fizika-matematika fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Tadjibaev Ikram Uralbaevich
fizika-matematika fanlari doktori

Burxonov Otabek Anvarjonovich
fizika-matematika fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

**"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi
Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.FM.01.18 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, Tel.: (+99871) 227-12-24; faks: (+99871)246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "____" _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.N. Nuritdinov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori

F.T. Shamshiyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
fizika-matematika fanlari nomzodi

T.A. Axunov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar rais
muovini, fizika-matematika fanlari doktori

KIRISH

(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda galaktikalar va ularning quyi tizimlarining shakllanishi hamda evolyutsiyasiga oid qator yangi kuzatuv ma'lumotlari qo'lga kiritilib, ular ichida Djeyms Uebb kosmik teleskopi¹ bajargan amaliy kuzatuvlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Natijada spiral galaktikalarining tekislik va sferik tashkil etuvchiliklari uchun yetarlicha ilmiy ma'lumotlar to'plangan bo'lsada bu yo'nalishda qator amaliy masalalar haligacha o'z yechimini topmagan. Masalan, disksimon tashkil etuvchi tizimning noradial tebranishlariga galaktika galosining gravitatsion ta'siri qanday ekani konkret modellarda haligacha o'rganilmagan muhim muammo hisoblanadi. Undan tashqari, o'ta muhim amaliy muammolardan yana biri spiral galaktikalar galolarining asosiy fizik ko'rsatkichlari bo'yicha haligacha sinflashtirish masalasi bu yo'nalish bo'yicha amaliy ahamiyatga ega bo'lib, uning dolzarbligidan dalolat beradi. Ushbu yo'nalishda ko'rsatilgan bu amaliy masalalarni yechish uchun dastlab galo bilan o'ralgan va noradial tebranuvchi aniq modelni yaratish, so'ngra nostatsionar diskning katta va kichik yarim o'qlarining vaqt davomida o'zgarish qonuniyatini sonli tajriba yordamida topish zarurdir. Bunda disk quyi tizimi galodan keyin shakllanganligi sababli, uning tebranishi va evolyutsiyasi jarayonlarini galo fonida o'rganish talab etiladi.

Jahonda bugungi kunda, galaktikalarining kuzatuv ma'lumotlari bazasi yetarli darajada kengaytirilib, ularning asosiy fizik xususiyatlarini va galoning boshqa quyi tizimlarga ta'sirini tadqiqot qilish vaqti keldi, ikkinchidan esa, galaktikalar galosi hamda diskining fizik xususiyatlari zamonaviy teleskoplar yordamida olingan ma'lumotlarini tahlil qilinishini talab etmoqda. Ushbu yo'nalishda, boshqa masalalar qatorida, galoni hisobga olgan holda diskning evolyutsiyasi davomida unig tebranish jarayonlarini o'rganish va spiral galaktikalarda halqa shaklidagi tuzilmalarning shakllanishiga olib keladigan beqarorlik g'alayonlanish modalarini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlarga katta ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga, galaktikalar galosi va disklarining kuzatuv ma'lumotlarini o'rganish, ularni tahlil qilish va galoni ularning massalari bo'yicha tasniflash ham dolzarb vazifa hisoblanmoqda.

Respublikamizda fundamental tadqiqotlarga, xususan, spiral galaktikalarda sodir bo'ladigan fizik jarayonlar, ularda mavjud bo'lgan galo va disk tuzilmalari tadqiqoti bo'yicha kuzatuv aspektlarini o'rganishga hamda ularning quyi tizimlarining parametrlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga² bog'liq fundamental tadqiqotlar yo'nalishi mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Xususan, kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish sohasida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish fundamental tadqiqotlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda galoni

¹ <https://webb.nasa.gov>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.

hisobga olgan holda galaktikalar diskining evolyutsiyasini o'rganish uchun modelini yaratish hamda spiral galaktikalarning halqasimon tuzilmalarining shakllanish nazariyasini ishlab chiqish muhim masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.02.2018-yildagi F-5209-sonli "O'zbekiston Respublikasida kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2019-yildagi O'RQ-576-sonli "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirish – II. "Energetika, energiya va resurs tejamkorligi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunga kelib, disksimon galaktikalar tuzilishini kuzatish ko'pgina mamlakatlarda yaxshi rivojlangan. Hozirda dunyoning ko'plab yetakchi olimlari disksimon galaktikalar evolyutsiyasi nazariyasi, ularning xususiyatlarini o'rganish, fotometrik tadqiqotlar va galaktikalar evolyutsiyasini modellashtirish bilan shug'ullanadilar. Masalan, amerikalik olimlar (Huchtmeier V.K., Karachentsev I.D., Karachentseva V.E., Li Jiang-Tao, Li Chjiyuan, Mouhcine M., Lilley E.J., Aumer M., Binney J.), rus (A.V.Zasov, A.V.Xoperskov) va boshqalar. Shuningdek, Fisher J.D., Faltenbacher A.³, Clewley L., Warren S.J., Hewett P.C., Norris John E., Peterson R.C., Evans N.W.⁴ kabi olimlarning fundamental va amaliy tadqiqotlari bu sohaga katta hissa qo'shgan. Shuai Liu⁵ va boshqalarning galo metalligi hamda galaktikaning qizil siljishi, shuningdek, bir qator boshqa parametrlar o'rtasidagi empirik bog'liqlikni olganligi e'tiborga molik. Biroq spiral galaktikalarning galo va disklarining kuzatuv ma'lumotlarini alohida yig'ish hamda ularning tahlili o'tkazilmagan, shuningdek, spiral galaktikalar quyi tizimlarining fizik parametrlari o'rtasida empirik bog'liqliklar aniqlanmagan, bu esa keyinchalik ularning shakllanish muammolarini o'rganish uchun muhim ma'lumot hisoblanadi.

O'zbekiston Milliy universitetida ilk bor galaktikalarning turli tizim osti tuzilmalari va o'zgravitatsiyalanuvchi tizimlarining nochiziqli dinamikasi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan hamda galaktikalar evolyutsiyasining nochiziqli nomuvozanatli bosqichlari uchun aniq fazaviy modellarini yaratish muammolari tahlili olib borilgan. Shuningdek, S.N.Nuritdinov, I.I.Kirbijekova va K.T.Mirtadjiyevalar tomonidan

³ Fisher J.D., Faltenbacher A. "Cosmic web type dependence of halo clustering" // MNRAS, 2012. Vol. 473. Issue 3. – P. 3941-3948.

⁴ Clewley L., Warren S.J., Hewett P.C., Norris John E., Peterson R.C., Evans N.W. "Distant field blue horizontal branch stars and the mass of the Galaxy – I. Classification of halo A-type stars" // MNRAS, 2002. Vol. 337. Issue 1. – P. 87-97.

⁵ Shuai Liu, Cuihua Du, Heidi Jo Newberg, Yuqin Chen, Zhenyu Wu, Jun Ma, Xu Zhou, Zihuang Cao, Yonghui Hou, Yuefei Wangand Yong Zhang. "Metallicity and kinematics of the galactic halo from the lamost sample stars" // 2018, ApJ. 862. 163 L.

nochiziqli hamda noradial tebranuvchi nostatsionar disk modelini yaratish muammolari va uning barqarorligi masalalari o'rganilgan. Ammo bu ishlarda galoni hisobga olgan holda nochiziqli noradial tebranuvchi disk uchun tenglama hosil qilinmagan va uni sonli tahlil qilish usuli ishlab chiqilmagan.

Galaktikalarning turli tizim osti tizimlari va o'ziga xos o'zgravitatsiyalanuvchi tizimlarda nochiziqli radial tebranishlarini o'rganish hamda galaktikalar evolyutsiyasining nochiziqli nomuvozanat modellarida gravitatsion beqarorlik muammosini tahlil qilish birinchi marta O'zbekiston Milliy universitetida S.N.Nuritdinov tomonidan boshlangan. Bu yerda birinchi marta, Eynshteyn va Kammning taniqli statsionar konfiguratsiyalari asosida sferik o'zgravitatsiyalanuvchi tizimlari uchun nochiziqli pulsatsiyalanuvchi modellar ishlab chiqildi. Bundan tashqari, nomuvozanatli disksimon o'zgravitatsiyalanuvchi tizimlar uchun modellar yaratilgan va ular doirasida g'alayonlanishlarning asosiy tuzilmaviy modalarining beqarorligi muammolari o'rganilgan (S.N.Nuritdinov, K.T.Mirtadjiyeva). Biroq halqa shaklidagi tebranish modalariga nisbatan nochiziqli radial tebranuvchi sferik va disk modellari beqarorligining qiyosiy tahlil qilish amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining 51-06-sonli "Anizotrop disksimon tizimlarning nochiziqli modellarini yaratish va gravitatsion beqarorliklarini tahlil qilish", № F.7-12 "Halqasimon galaktikalar kuzatuv ma'lumotlatini tahlil qilish va ularning kelib chiqish nazariyasini ishlab chiqish" va VA-FA-F-2-007 "Galaktikalar va ularning to'dalarining fizik, dinamik va linzalash xususiyatlarini ko'p to'liqini tadqiqoti" mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi "Disksimon galaktikalarning galosining (DGG) katalogi"ni tuzish va uning statistik tahlili, shuningdek, o'zgravitatsiyalanuvchi diskning galoni hisobga olgan holda noradial nochiziqli tebranishlari nazariyasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

DGG katalogini tuzish maqsadida kuzatuv ma'lumotlarini to'plash va 101 ta obyektlardan iborat birinchi bora yaratilgan DGG katalogini statistik tahlil qilish;

galo va diskning asosiy fizik parametrlari orasidagi empirik munosabatlarni olish;

kuzatish ma'lumotlariga asoslanib DGGni tasniflash;

galoni hisobga olgan holda o'zgravitatsiyalanuvchi disk evolyutsiyasi uchun matritsali differensial tenglamalar sistemasini hosil qilish va uni sonli tahlil qilish usulini ishlab chiqish;

disk va galo parametrlarining turli qiymatlari uchun tenglamalar sistemasini sonli hisoblash natijalarini hosil qilish;

disk va galo parametrlari o'rtasidagi kritik bog'liqliklarning hosil qilinishini asoslash;

g'alayonlanishning halqasimon tuzilmaviy modalarining beqarorligiga nisbatan nochiziqli radial tebranuvchi sferik va disk modellarining qiyosiy tahlilini o'tkazish.

Tadqiqot obyekti – galaktikalarining galo va disklari, ularning nazariy modellari va disksimon galaktikalarda kuzatilgan halqasimon tuzilmalar.

Tadqiqotning predmeti disksimon galaktikalarda galoni hisobga olgan holda disk evolyutsiyasi jarayonlari va mexanizmlari hamda radial nochiziqli tebranuvchi modellar fonida gravitatsion beqarorlik hodisalari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatuv ma'lumotlar orasidagi statistik bog'lanishlarni topishda eng kichik kvadratlar usuli, shuningdek, differensial tenglamalar sistemalarini sonli integrallash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

101 ta spiral galaktikaning galo va diskining fizik parametrlarini o'z ichiga olgan katalog ilk bor, tuzildi va bu parametrlari o'rtasidagi empirik formulalar topildi, shuningdek, galo tasnifi ishlab chiqilgan;

ilk bor, galaktika galosini hisobga olgan holda uning disk tizim osti evolyutsiyasi uchun tenglama hosil qilindi va uni sonli tahlil qilish usuli ishlab chiqilgan;

galaktikalar evolyutsiyasining boshlang'ich bosqichida galo effektini hisobga olgan holda diskning nochiziqli noradial tebranishlarini barqarorlashtiruvchi tizim parametrlarining kritik qiymatlari topilgan;

nochiziqli radial pulsatsiyalanuvchi sferik modelning bir va ikki halqali g'alayonlanish modalari uchun dispersiyon tenglamalarining nostatsionar analoglari (DTNA) topilgan;

birinchi marta, sferik va disk pulsatsiyalanuvchi modellari fonida halqasimon tuzilmali g'alayonlanish modalari beqarorligining qiyosiy tahlili natijalari olingan;

ilk bor, galaktikalarda halqasimon tuzilmalarning yuzaga kelish xarakterli vaqtlari va bunda radial pulsatsiyalanuvchi modellarning nostatsionarlik darajasi uchun kritik qiymatlar topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

adabiyotlar, xalqaro ma'lumotlar bazalari va boshqa mualliflarning internet saytlaridan foydalanib tuzilgan 101 ta ob'yeqli DGG katalogi disksimon galaktikalarining fizik xarakteristiklari tahlilida qo'llashga xizmat qiladi;

DGGning individual fizik xususiyatlari, shuningdek, galo va diskning massalari o'rtasidagi bog'liqligining empirik formulalari turli amaliy maqsadlar uchun topilgan;

bundan tashqari, DGGni sinflashtirish, ularning kuzatuv ma'lumotlari tahlili va nazariy tadqiqot natijalairni universitetlarning galaktikalar fizikasi bo'yicha maxsus kurslari dasturiga kiritish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kuzatuv ma'lumotlarini statistik tahlil qilishning zamonaviy usullari, shuningdek, differensial tenglamalar sistemasini yuqori aniqlikdagi raqamli hisoblash usullarini qo'llash hamda olingan xulosalar bir qator boshqa mualliflarning tadqiqot natijalari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, olingan natijalar disksimon galaktikalar fizikasini va galaktikalarda halqasimon tuzilmalarning hosil bo'lishining nochiziqli nazariyasini

yaratishga imkon beradi, shuningdek, tuzilgan katalog va uning statistik tahlili natijalari DGG tasnifi muammosini hal qilish uchun muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalarini kuzatuvlar natijasida aniqlangan DGGlariga qo'llash va ularning noma'lum fizik xususiyatlarini aniqlash imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tuzilgan DGG katalogi F2-FA-F029 – “Gravitatsion linzalar, kompakt astrofizik obyektlar va nostatsionar disksimon tizimlar fizikasi” mavzusidagi loyiha doirasida spiral galaktikalar galosi va diskining fizik xususiyatlarini aniqlash uchun ishlatilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Ulug'bek nomidagi Astronomiya institutining 04.04.2024-yildagi 02-09/64-sonli ma'lumotnomasi). Natijada katalog ma'lumotlaridan foydalanib galo va disk parametrlari orasidagi empirik formulalar aniqlangan.

Galaktika galosini hisobga olgan holda o'zgravitatsiyalanuvchi diskning evolyutsiyasini tavsiflovchi tenglamalar tizimi va uni raqamli hisoblash usulidan F2-FA-F029 – “Gravitatsion linzalar, kompakt astrofizik obyektlar va nostatsionar disksimon tizimlar fizikasi” mavzusidagi loyihada disksimon galaktikalar evolyutsiyasining dastlabki bosqichini o'rganishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Ulug'bek nomidagi Astronomiya institutining 04.04.2024-yildagidagi 02-09/64-sonli ma'lumotnomasi). Olingan sonli hisob-kitoblar natijalarini qo'llash disksimon galaktikalar evolyutsiyasining dastlabki bosqichida galo va disk massalari uchun dastlabki kritik qiymatlarni aniqlash, shuningdek, ularning galolarini tasniflash imkonini bergan.

F2-FA-F029 – “Gravitatsion linzalar, kompakt astrofizik obyektlar va nostatsionar disksimon tizimlar fizikasi” mavzusidagi loyiha doirasida galaktika evolyutsiyasining nostatsionar bosqichi fizikasi tadqiqotida halqali galaktikalarning shakllanishi muammosini o'rganish maqsadida hosil qilingan dispersion tenglamalarning nostatsionar analogidan foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Ulug'bek nomidagi Astronomiya institutining 04.04.2024-yildagi 02-09/64-sonli ma'lumotnomasi). Natijada galaktikalardagi halqa strukturasining kelib chiqish mexanizmlari va mezonlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarini aprobat siyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 10 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza hamda muhokama qilingan. Natijalar O'zbekiston Milliy universiteti “Astrofizika tadqiqotlari” ilmiy laboratoriyasi bilan hamkorlikda “Astronomiya va astrofizika” kafedra si seminarlarida, fizika fakulteti qo'shma seminarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining “Galaktikadan tashqi astronomiya” laboratoriyasining ilmiy seminarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotning asosiy ilmiy natijalari 23 ta ilmiy ishlarda, jumladan, 6 ta ilmiy maqolada chop etilgan bo'lib, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarida va 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 111 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati hamda O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarga muvofiqligi asoslangan, muammoni o‘rganilganlik darajasi ochib berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchlilik asoslangan, uning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq etilganligi va nashr qilingan ishlar, olingan natijalar aprobatyasi va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Disksimon galaktikalar kuzatuv ma‘lumotlari va ularni raqamli modellash natijalari”** deb nomlangan **birinchi bobida** mavzuga oid kuzatuv ma‘lumotlari, disksimon galaktikalarning katta masshtabli tuzilishi va ularning nazariy tadqiqotlar yo‘nalishi bo‘yicha adabiyotlar tahlili berilgan.

Galaktikalar va ularning quyi tizimlarining shakllanishi hamda evolyutsiyasi muammolarini o‘rganish galaktikadan tashqi astronomiyaning faol rivojlanayotgan sohasi hisoblanadi. Ma‘lumki, har xil turdagi Hubble kamertonining galaktikalari evolyutsiyasining ma‘lum bosqichlarida shakllangan turli xil quyi tizimlarga ega. Ular orasida, disksimon galaktikalar quyi tizimlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi, masalan: yadro, balj, spiral tarmoqlari bo‘lgan disk, galo, toj va barga ega. Ushbu galaktikalarda yana bir holatni ham hisobga olish kerak, ya‘ni kollaps davrida bir o‘z aylanadigan protogalaktika ko‘rinishidagi gaz bulutining o‘lchami aylanish o‘qi bo‘ylab va ko‘ndalang ravishda turlicha kamayadi. Shu sababli, markazdan qochma kuchlar ta‘siri ostida bo‘lishidan oldin tug‘ilgan eski yulduzlar, deyarli aylanmaydigan sferik quyi tizimni-galoni va keyinroq paydo bo‘lgan yulduzlar esa tez aylanadigan yupqa yulduzli-diskni hosil qiladi. Disk quyi tizimi galodan keyin shakllanganligi sababli, uning shakllanishi va evolyutsiyasi bilan bog‘liq jarayonlar galo fonida sodir bo‘ldi. Shuning uchun astrofizikada bu hodisani o‘rganishga doimo katta e‘tibor beriladi.

“Disksimon galaktikalarning zamonaviy kuzatuv ma‘lumotlarining statistik tahlili” deb atalgan **ikkinchi bobida** galo va diskdagi kuzatuv ma‘lumotlarining tahlilidan iborat. Ushbu bobda disksimon galaktikalar va ularning quyi tizimlari bo‘yicha zamonaviy kuzatuv ma‘lumotlari natijalariga oid adabiyotlar ko‘rib chiqildi. Disksimon galaktikalari fizikasining dolzarb muammolari, xususan, galo tasnifi, galo va diskning kuzatuv ma‘lumotlarini to‘plash masalalari ko‘rib chiqildi. Disksimon galaktikalar bo‘yicha kuzatuv ma‘lumotlarini to‘plash asosida 101 obyektidan iborat katalog tuzildi. Bizning katalogimiz boshqa kataloglardan farqi shundaki, u galo va diskning fizik parametrlarini o‘z ichiga olgan. Galaktika galosiga tegishli asosiy parametrlar LEDA va NED ma‘lumotlar bazalarida mavjud, shuningdek, maksimal qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan boyitilgan.

Tuzilgan katalog statistik tahlili asosida disksimon galaktikalar tizimosti parametrlari orasidagi turli empirik bog‘lanishlar aniqlandi. Jumladan, korrelyatsiya koeffitsiyenti yetarli darajada yuqori, ya’ni 0.67 ga teng bo‘lgan umumiy yulduzlar massasi va disk radiusi orasidagi empirik bog‘lanish olingan. Ushbu bog‘liqlik chiziqli ko‘rinishga ega:

$$M^* = 0,411 (\pm 0,005) R_d + 2,360 (\pm 0,008) \quad (1)$$

Bundan tashqari, koeffitsiyentlarni aniqlashda xatolar nisbatan past. Shuningdek, yulduzlarning umumiy massasi va galo radiusi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Bu bog‘liqlik ham chiziqli ko‘rinishga ega:

$$M^* = 0,304 (\pm 0,021) R_h - 0,623 (\pm 0,085) \quad (2)$$

Bu bog‘lanishning korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,82 ga teng.



Galo massasi va galo komponentlarining tezliklar dispersiyasi, shuningdek, umumiy yulduz massasi va galo komponentlarining tezliklar dispersiyasi o‘rtasida empirik bog‘lanishlar olindi. Galaktikadagi yulduzlarning ko‘payishi bilan galodagi obyektlarning tezliklar dispersiyasi ham nisbatan ortadi ($cc = 0,85$). Ushbu bog‘lanishlarning quyidagi ifodalar olindi:

$$V_h = 12,592 (\pm 0,002) M_h + 115,310 (\pm 0,004) \quad (3)$$

$$V_h = 30,152 (\pm 0,008) M^* + 105,641 (\pm 0,002) \quad (4)$$

bu yerda xatolar (2) ga qaraganda bir oz past.

Shuningdek, galo va umumiy yulduzlar massasi o‘rtasidagi empirik munosabatlar olindi. Ushbu bog‘liqlik chiziqli ko‘rinishga ega va uning korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati aniqlandi (1-rasm. Chapda).



1-rasm. Chapda: galo massasi va galaktikalarining umumiy yulduzlar massasi o‘rtasidagi empirik munosabat, O‘ngda: galo radiusi va uning massasi o‘rtasidagi munosabat.

Shuningdek, sharsimon to‘dalarning massasi va galo radiusi orasida logarifmik bog‘lanish olindi hamda uning korrelyatsiya koeffitsiyenti: $cc = 0,66$

(1-rasm. O'ngda). Bu esa, taxminan 5 dan 15 kPc gacha bo'lgan hududda sharsimon to'dalarning asosiy qismi joylashganini ko'rsatadi:

$$M_{GC} = 0,677(\pm 0,068) \ln(R_h) + 5,868(\pm 0,024) \quad (5)$$

Qorong'u materiya (QM) galosining massasi va diskning sirt zichligi o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,58 ga teng bo'lgan bog'liqlik aniqlangan. Ushbu bog'liqlikdan shuni aytish mumkinki, QM galo massasi diskning sirt yorqinligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatmaydi:

$$\log M_{dm} = 0,006(\pm 0,001) \sigma_d + 9,816(\pm 0,507) \quad (6)$$

Shuningdek, galo radiusi va uning komponentlarining tezliklar dispersiyasi o'rtasida bog'liqlik olindi hamda u quyidagi ko'rinishga ega:

$$V_h = 10,377(\pm 0,004) R_h + 70,588(\pm 0,005) \quad (7)$$

Ushbu bog'lanishdan ko'rish mumkinki, galaktikalar markaziga yaqinlashgan sari yulduzlarning galodagi tezlik dispersiyasi uning atrofiga nisbatan kamroq. Quyidagi bog'liqlik umumiy yulduz massasi va QM galosi massasi o'rtasida olingan:

$$\log M_{dm} = 0,0113(\pm 0,0012) M^* + 9,8908(\pm 0,0095) \quad (8)$$

korrelyatsiya koeffitsiyenti – 0,7. Shunday qilib, disk shaklidagi galaktikalarning asosiy fizik xarakteristikalarini o'rtasida juda yaqin korrelyatsiyalarni topilgan.

Ta'kidlash joizki, birinchi bo'lib disksimon galaktikalar galosining tasnifini ishlab chiqdik va ularni 5 sinfga ajratish mumkinligini ko'rib chiqdik: I kichik massiv, II o'rta massiv, III yarim massiv, IV massiv va V super massiv. Bizning katalogimizda diskli galaktikalarning 28 % – kichik massiv, 23 % – o'rtacha massiv, 20 % – yarim massiv, 13 % – massiv va 16 % – super massiv galoga ega. Shuningdek, kichik massiv galolar eng ko'p Sc morfologik sinfga mansub bo'lgan diskli galaktikalarda kuzatilishini aniqlangan.

Uchinchi bobda **“O'zgravitatsiyalanuvchi disksimon tizimlarning galoni hisobga olgan holda noradial nochiziqli tebranishlari”** galoni hisobga olgan holda galaktikalarning diskli quyi tizimining evolyutsiyasi muammosi ko'rib chiqildi.

O'zgravitatsiyalanuvchi diskining evolyutsiyasi tenglamalarini olish uchun hosilaviy funksiya usulidan foydalandik. G'alayonlangan va g'alayonlanmagan Lagranj fazaviy koordinatalari orasidagi munosabatni chiziqli hamda kanonik deb hisoblash mumkinligi sababli, hosilaviy funksiya w ikkinchi darajali polinom bo'lishi kerak. Nazariyaga ko'ra, uni bu ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$w(\vec{r}, \vec{v}_0, t) = \frac{1}{2} \vec{r} N_1(t) \vec{r} + \vec{r} N_2(t) \vec{v}_0 + \frac{1}{2} \vec{v}_0 N_3(t) \vec{v}_0 \quad (9)$$

Bu yerda $N_i(t)$ ikki o'ldamli kvadrat matritsalar bo'lib, ulardan $N_1(t)$ va $N_3(t)$ simmetrik matritsalar, $N_2(t)$ esa ixtiyoriy matritsa, $\vec{r}$ zarrachalarning g'alayongan koordinatalarini va $\vec{v}_0$ nominal holatdagi tezlik vektoridir. Keyin (9) yordamida quyidagini olamiz:

$$\vec{r}_0 = \text{grad}_{\vec{v}_0} w = N_2^* \vec{r} + N_3 \vec{v}_0, \quad \vec{v} = \text{grad}_{\vec{r}} w = N_1 \vec{r} + N_2 \vec{v}_0, \quad (10)$$

bu yerda $*$ – belgisi transponirlashni bildiradi. Keyin esa (10) yordamida quyidagilarni olamiz:

$$\vec{r}_0 = (N_2^* - N_3 N_2^{-1} N_1) \vec{r} + N_3 N_2^{-1} \vec{v}, \quad \vec{v}_0 = N_2^{-1} \vec{v} - N_2^{-1} N_1 \vec{r} \quad (11)$$

Yoqoridagi aytib o'tilganidek, birinchi bora quyidagi sirt zichligiga ega disk modelini keltirib chiqilgan:

$$\sigma(x, y, t) = \sigma_0(t) \left(1 - \frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} \right)^{1/2}, \quad (12)$$

Ushbu model nochiziqli va noradial tebranadi. Bu model quyidagicha gravitatsion potensialga ega bo'lgan passiv ellipsoidal galo bilan o'ralgan

$$\Phi_h(x, y, z) = -\frac{1}{2} A_1(e) (x^2 + y^2) - \frac{A_2(e)}{2} z^2, \quad (13)$$

Bu yerda a va b – diskning yarim o'qlari, t vaqtga bog'liq $\sigma_0(t) = 3M_{\text{disk}} / (2\pi ab)$ shuningdek, $A_1(e)$ va $A_2(e)$ – galoning meridional kesimining eksentrisetining taniqli funksiyalari. Ushbu modelning mos keladigan faza zichligi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\Psi(\vec{r}, \vec{v}, t) = \frac{\sigma_0}{2\pi R_0 (1 - \Omega^2)^{1/2}} f^{-1/2} \chi(f). \quad (14)$$

Bu yerda Ω – diskning aylanish parametri, R_0 – uning boshlang'ich nominal holatidagi radiusi, χ – Havisayd funksiyasi, shuningdek,

$$f = (1 - \Omega^2) R_0^2 - S_1^{-1} [N_2^{-1} \vec{v} - (N_2^{-1} N_1 + S_2^*) \vec{r}]^2 - \vec{r} H \vec{r}$$

va

$$S_1 = E + N_3^2 + \Omega(JN_3 - N_3J), \quad S_2 = N_2(\Omega J - N_3)$$

bunda

$$H = N_2 [E + (\Omega J - N_3) S_1^{-1} (\Omega J + N_3)] N_2^*,$$

va

$$J = \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ -1 & 0 \end{pmatrix}.$$

Bu yerda E – birlik matritsa. G‘alayonlangan holatda elliptik disk quyidagi tortishish potensialiga ega:

$$\Phi_d(x, y, t) = -A(a, b)x^2 - B(a, b)y^2 = -\vec{r}\Phi_1\vec{r}, \quad \Phi_1 = \begin{pmatrix} A & 0 \\ 0 & B \end{pmatrix}, \quad (15)$$

Bu yerda A va B funksiyalar a(t) va b(t) bog‘liq.

Biz ko‘rib chiqayotgan tebranishlar diskning tekisligida sodir bo‘lganligi sababli, tortishish potentsiallari quyidagicha ifodalanishi mumkin.

$$\Phi_h(x, y) = -\frac{2\pi}{3}G\rho_0 r^2 \quad (r^2 = x^2 + y^2) \quad (16)$$

va

$$\Phi_d(x, y) = -\frac{\pi^2}{4R_0}G\sigma_0 r^2, \quad (17)$$

Bu yerda G – gravitatsion doimiysi, $\rho_0 = \text{const}$ va u galoning fazoviy zichligi. Bunday ixtiyoriy nostatsionar holatda Gamilton-Jakobi tenglamasi o‘rinli

$$\frac{\partial w}{\partial t} + \frac{1}{2}(\text{grad}_{\vec{r}} w)^2 - (\Phi_d + \Phi_h) = 0. \quad (18)$$

(9), (13) va (15)ni (18) ga qo‘yish va ko‘paytmalarida faqat $\vec{r}$ bo‘lgan hadlarni, faqat $\vec{v}_0$ komponentlar alohida yig‘ish orqali diskning evolyutsiyasi uchun tenglamalarni olish mumkin. Lekin dastlabki $t=0$ holatda, N_1, N_2, N_3 matritsalar elementlari uzlukli funksiyalar bo‘lishi noqulaylik tug‘diradi. Shuning uchun, uzluksiz funksiyalarga – U_1, U_2, U_3, U_4 matritsalariga o‘tkazamiz, ularni quyidagi munosabatlar bilan aniqlaymiz:

$$U_1 = N_2^{-1}, \quad U_2 = N_2^{-1}N_1, \quad U_3 = N_3N_2^{-1}, \quad U_4 = \frac{d}{dt}(N_3N_2^{-1}). \quad (19)$$

Quyidagi $\frac{4\pi}{3}G\rho_0 + \frac{\pi^2}{2R_0}G\sigma_0 = 1$ normirovka va $p = M_{\text{galo}} / M_{\text{disk}}$ o‘lchamsiz parametrlarni kiritamiz ya’ni, galo va disk massalarining nisbatini kiritib disk modeli uchun quyidagi evolyutsiya tenglamasini olamiz:

$$\begin{cases} \frac{dU_1}{dt} = U_2, \\ \frac{dU_2}{dt} = -2U_1\Phi_1 - pA_1(e)U_1, \\ \frac{dU_3}{dt} = U_4, \\ \frac{dU_4}{dt} = -2U_3\Phi_1 - pA_1(e)U_3 \end{cases} \quad (20)$$

Shunday qilib, biz galoni hisobga olgan holda o'zgravitatsiyalanuvchi diskining evolyutsiyasi uchun matritsali differensial tenglamalar tizimini oldik. Keyin esa, berilgan boshlang'ich shartlar bilan Koshi masalasini sonli hal qilamiz. Shuni ta'kidlash kerakki, bu tenglamalar, xususan, galoni hisobga olgan holda aylana diskning radial pulsatsiyalarining ($a=b$) evolyutsiyasini ham tasvirlashi mumkin.

“Radial nochiziqli tebranuvchi modellar fonidagi beqarorlik to'g'risida: halqasimon g'alayonlanish modalari” nomli **to'rtinchi bobda** halqa shaklidagi tebranish garmonikalari mavjudligida sferik o'zgravitatsiyalanuvchi konfiguratsiyasi uchun beqarorlik fizikasini tadqiq qilindi. Shunday qilib, tebranish garmonikalari uchun dispersiya tenglamalarini oldik. Bundan tashqari, aniq holatlar uchun statsionarlik darajasining aylanish parametriga bog'liqligining kritik diagrammalarini tuzdik. Gravitatsion beqarorliklarning halqasimon tebranish garmonikalari bilan bog'liq muammolar taniqli Bisnovaty – Kogan – Zeldovich diskining nochiziqli umumlashtirilgan nomuvozanat holatidagi disk konfiguratsiyasi doirasida o'rganildi. Ushbu olingan natijalarga asoslanib, halqa shaklidagi tebranish garmonikalariga nisbatan kollapslanuvchi tizimning ikkita modelini solishtirdik.

Shunday qilib, quyidagi radial tebranuvchi disk modelini o'rganib chiqdik:

$$\Psi_d(r, v_r, v_\perp, t) = \frac{\sigma_0}{2\pi\Pi\sqrt{1-\Omega^2}} \left[\frac{1-\Omega^2}{\Pi^2} \left(1 - \frac{r^2}{\Pi^2} \right) - (v_r - v_a)^2 - (v_\perp - v_b)^2 \right]^{-1/2} \cdot \chi(R-r) \quad (21)$$

Bu yerda disk izotrop tezlik diagrammasiga ega va $R(t) = R_0\Pi(t)$ qonunga muvofiq radial pulsatsiyalanadi, bunda

$$\Pi(t) = \frac{1 + \lambda \cos \psi}{1 - \lambda^2}, \quad t = \frac{\psi + \lambda \sin \psi}{(1 - \lambda^2)^{3/2}}.$$

va sferik konfiguratsiya uchun Kamm sharining nochiziqli pulsatsiyalanuvchi versiyasini olamiz:

$$\Psi_s = \rho(t)\Pi^4(\pi R\Omega_0)^{-2}f^{-1/2}\chi(f) \cdot [1 + \Omega r v_\perp \sin \theta \cdot \sin \eta / (\Omega_0 R_0^2)], \quad (22)$$

Bunda Ω – sistemaning burchak tezlanishi va

$$f = (1 - r^2/R^2) \cdot (\Omega_0^2 R^2 / \Pi^4 - v_\perp^2) - \{v_r + \Omega_0 \lambda \cdot \sin \varphi \cdot r / [(1 - \lambda^2)^{1/2} \cdot \Pi^2]\}^2.$$


endi esa, (22) model doirasidagi tebranishlarning halqasimon garmonikalar uchun keyingi DTNA oldik:

$$a_{40}(\psi) = \frac{3}{4(1 + \lambda \cos \psi)^9} \left[c(4c^2 - 3e^2s^2)\ell_0(\psi) + 3e^2s(6c^2 - e^2s^2)\ell_1(\psi) + \right. \\ \left. + 3e^2c(6e^2s^2 - c^2)\ell_2(\psi) + e^4s(4e^2s^2 - 3c^2)\ell_3(\psi) \right], \quad (23)$$


$$a_{42}(\psi) = \frac{3}{4(1 + \lambda \cos \psi)^9} \left\{ \left[c(4c^2 - 3e^2s^2)\gamma_0(\psi) + 3e^2s(6c^2 - e^2s^2)\gamma_1(\psi) + \right. \right. \\ \left. \left. + 3e^2c(6e^2s^2 - c^2)\gamma_2(\psi) + e^4s(4e^2s^2 - 3c^2)\gamma_3(\psi) \right] + \operatorname{im} \frac{\Omega e}{6} \left[s(e^2s^2 - 6c^2)\gamma_0(\psi) + \right. \right. \\ \left. \left. + 3c(2c^2 - 5e^2s^2)\gamma_1(\psi) + 3e^2s(5c^2 - 2e^2s^2)\gamma_2(\psi) + e^2c(6e^2s^2 - c^2)\gamma_3(\psi) \right] \right\}. \quad (24)$$

(23) va (24) DTNA ixtiyoriy parametrlarga ega bo'lgan to'rtta ikkinchi tartibli differensial tenglamalar tizimidan iborat, shuning uchun ularni analitik yo'l bilan yecha olmaymiz. Shunga asoslanib, bu tenglamalar sistemalarini sonli davriy yechimlarning barqarorlik usulidan foydalanib o'rgandik. (23) va (24) DTNA ning raqamli hisob-kitob natijalariga ko'ra, (22) sferik modelning Ω aylanish parametrining nostatsionarlik darajasi $(2T/|U|)_0$ ga bog'liqligining marjinal diagrammalari tuzildi (2 va 3-rasm).

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, agar (22) model tinch holatda $\Omega = 0$ bo'lsa, $0 \leq (2T/|U|)_0 \leq 0.301$ qiymatlarda beqarorlik kuzatiladi, lekin ular orasida $(0.221; 0.237)$ juda kichik oraliqda barqarorlik mavjud. Nostatsionarlik darajasi $0 \leq (2T/|U|)_0 \leq 0.221$ qiymatlari oralig'ida aperiodik beqarorlik mavjud, $0.237 \leq (2T/|U|)_0 \leq 0.301$ oraliqda esa tebranish beqarorligi kuzatiladi.




2-rasm. (22)-konfiguratsiyaning nostatsionarlik darajasi $(2T/|U|)_0$ ning aylanish parametri Ω bilan bog'liqligining (4;0) garmonika uchun marjinal diagrammasi.



3-rasm. (22)-konfiguratsiyaning nostatsionarlik darajasi $(2T/|U|)_0$ ning aylanish parametri Ω bilan bog'liqligining (4;2) garmonika uchun marjinal diagrammasi.

3-rasmdagi kritik diagrammadan, sferik modelning aylanish parametri $0 < \Omega < 0.630$ qiymatlari oralig'ida barqarorlikning kichik yarim oroli kuzatiladi deb xulosa qilishimiz mumkin. Ammo modelning aylanish parametri maksimal qiymatga intilganda, bu barqarorlik yarim orol sohasi kamayadi. Tebranish amplitudasining har bir qiymati uchun biz ko'rib chiqayotgan tebranishlarning halqa

garmonikalarining gravitatsion beqarorliklari inkrementi qiymatlari hisoblab chiqildi.



4-rasm. Ω har xil qiymatlar uchun radial chiziqli bo‘lmagan tebranish konfiguratsiyasi (4.4) doirasidagi bir halqali (4;2) va ikki halqali (6;2) tebranishlar garmonikalarining beqarorlik inkrementlarini taqqoslash grafiklari.

Radial nochiziqli tebranuvchi konfiguratsiyalarni (21) va (22) qiyosiy tahlil qilish uchun, Ω ning turli qiymatlar uchun modelning statsionarlik darajasi $(2T/|U|)_0$ ga halqasimon beqarorlik inkrementining bog‘liqlik grafiklari ham olindi (4-rasm). Ushbu rasmlardan ko‘rinib turibdiki, tebranishlarning halqa shaklidagi garmonikalari sferik konfiguratsiyadagi (22) beqarorlik bilan solishtirganda, nochiziqli pulsatsiyalanuvchi diskda (21) beqarorroqdir. Shuningdek, disk (21) va sferik (22) konfiguratsiyalarning radial nochiziqli tebranish modellari doirasida halqa garmonikalari tizimlarining nostatsionarlik darajasiga qarab turli qiymatlarda o‘zgaruvchan beqarorlik sohalariga ega ekanligini ham ta’kidlash lozim.

XULOSALAR

“O‘zgravitatsiyalanuvchi diskning tojini hisobga olgan holda nochiziqli noradial tebranishlari” mavzusidagi dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar olindi:

1. 101 ta spiral galaktikaning galo va diskining fizik parametrlarini o‘z ichiga olgan katalog tuzildi. Birinchi marta, disk va galo parametrlari o‘rtasidagi empirik bog‘liqliklar topildi hamda ular orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblab chiqildi. Jumladan, galo massasi va radiusi o‘rtasidagi empirik bog‘liqlik eksponensial xarakterga ega ekanligi ko‘rsatildi.

2. O‘zgravitatsiyalanuvchi diskining galosini hisobga olganda evolyutsiyasi uchun matritsali differensial tenglamalar tizimi olingan va uni sonli tahlil qilish usuli ishlab chiqilgan. Disk tinch holatda $\Omega=0$, g‘alayonlanishi qiymati μ ning ortishi bilan, diskning yarim o‘qlari $a(t)$ va $b(t)$ ning holati, aylanish parametrining $\Omega>0.5$ qiymatida ularning beqarorlik sohasidagi xolatidan farq qilmaydi.

3. Galaktikalarning sferik quyi tizimi diskning evolyutsiyasining dastlabki bosqichidagi tebranishlarini barqarorlashtiruvchi parametrlarning kritik qiymatlari aniqlandi. $\mu \geq 1,8$ g‘alayonlanish qiymatlarida disk modelining tebranishlari, aylanish parametrining barcha qiymatlarida beqaror bo‘lib qolishi aniqlandi, chunki bu holda diskning yarim o‘qlari $a(t)$ va $b(t)$ vaqt o‘tishi bilan chiziqli ravishda o‘sib boradi.

4. Radial pulsatsiyalanuvchi modellar doirasida bir va ikki halqali tebranish garmonikalarining DTNAlari topildi. Shuningdek, aylanmaydigan radial nochiziqli tebranuvchi modellar doirasida halqasimon garmonikalar nomuvozanatligining turli qiymatlariga qarab, turlicha beqarorlik xarakterga ega ekanligi isbotlangan va faqat $\Omega>0$ da davriy beqarorlik mavjudligi aniqlangan.

5. Sferik konfiguratsiya doirasidagi tebranish garmonikalarining halqa shaklidagi gravitatsion nomuvozanatligi o‘rishlarini qiyosiy tahlil qilish asosida bir halqali garmonikaning beqarorlik shiddati, Ω aylanish parametrlarining va modelning nostatsionarlik darajasi $(2T/|U|)_0$ ning barcha qiymatlarida ikki halqali garmonikaga nisbatan katta ekanligini ko‘rsatadi.

6. Disk va sferik konfiguratsiyalarning radial nochiziqli tebranish modellarining aylanish parametri ularning halqa garmonikalariga nisbatan gravitatsion beqarorligi jarayonida beqarorlashtiruvchi rol o‘ynashi aniqlandi.

7. Radial nochiziqli pulsatsiyalanuvchi disk, sferik konfiguratsiyalarga nisbatan tebranishlarning halqa garmonikalari beqarorroq ekanligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/05.05.2023.FM.01.18 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

МАННАПОВА КАМОЛА АЛИМДЖАНОВНА

**НЕРАДИАЛЬНЫЕ НЕЛИНЕЙНЫЕ КОЛЕБАНИЯ
САМОГРАВИТИРУЮЩЕГО ДИСКА С УЧЕТОМ ГАЛО**

01.03.02 – Физика космоса и астрофизика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2023.4.PhD/FM969.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ik-fizmat.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Миртаджиева Карамат Тахировна доктор физико-математических наук
Официальные оппоненты:	Таджибаев Икрам Уралбаевич доктор физико-математических наук Бурхонов Отабек Анваржонович кандидат физико-математических наук
Ведущая организация:	Институт фундаментальных и прикладных исследований Национального исследовательского университета "ТИИМСХ"

Защита диссертации состоится “_____” _____ 2024 года в _____ часов на заседании Научном совете PhD.03/05.05.2023.FM.01.18 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4; Тел.: (+99871) 227–12–24, факс: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: pauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за № _____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4; Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан “_____” _____ 2024 г.
(Реестр протокола рассылки № _____ от “_____” _____ 2024 г.

С.Н. Нуритдинов
Председатель научного совета по
присуждению ученой степени, доктор
физико-математических наук

Ф.Т. Шамшиев
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученой степени, кандидат
физико-математических наук

Т.А. Ахунов
Заместитель председателя научного семинара
при научном совете по присуждению ученой
степени, доктор физико-математических наук

ВВЕДЕНИЕ

(аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире получен ряд новых наблюдательных данных о формировании и эволюции галактик и их подсистем, среди которых ярким примером являются практические наблюдения, выполненные космическим телескопом Джеймса Уэбба¹. В результате, хотя для плоских и сферических подсистем спиральных галактик собрано достаточно научных данных, ряд практических вопросов в этой области до сих пор не решен. Например, гравитационное влияние галактического гало на нерадиальные колебания дискообразной составляющей системы является важной проблемой, пока не изученной в конкретных моделях. Кроме того, еще одной из важнейших практических проблем является вопрос классификации гало спиральных галактик по основным физическим показателям. Для решения указанных в этом направлении практических задач необходимо сначала создать точную нерадиально колеблющуюся модель, окруженную гало, а затем с помощью численных экспериментов найти закон изменения большой и малой полуосей нестационарного диска во времени. При этом, поскольку дисковая подсистема сформировалась после гало, необходимо изучать процессы ее колебаний и эволюции на фоне гало.

На сегодняшний день в мире база данных наблюдений галактик достаточно расширена и настало время исследовать их основные физические свойства и влияние гало на другие подсистемы, во-вторых, физические свойства самого гало и диска галактик требуют анализа их данных, полученных с помощью современных телескопов. В этом направлении, на ряду других вопросов, большое значение придают исследования, направленные на изучение колебаний диска в ходе его эволюции с учетом гало, а также на анализ неустойчивости мод возмущений, приводящих к образованию кольцеобразных структур в спиральных галактиках. В то же время актуальной задачей считается также изучение данных наблюдений гало и дисков галактик, их анализ и классификация гало по его массам.

В нашей Республике особое внимание уделяется фундаментальным исследованиям, в частности изучению наблюдательных аспектов физических процессов, происходящих в спиральных галактиках, гало и дисковых структурах, а также анализу параметров их подсистем. Это означает, что направление фундаментальных исследований, связанное со стратегией² развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы, имеет большое значение в развитии науки в нашей стране. В частности, основной задачей фундаментальных исследований считается проведение научных исследований на уровне международных стандартов в области космических исследований и

¹ <https://webb.nasa.gov>

² Указ Президента Республики Узбекистан от 29 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

развития технологий. Важным вопросом в реализации этих задач является создание модели для исследования эволюции диска галактик с учетом гало и разработка теории формирования кольцеобразных структур спиральных галактик.

Данная диссертация в определённой степени посвящена решению задач, обозначенных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан №-УП-6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, №-РП-5209 «О мерах по развитию космических исследований и технологий в Республике Узбекистан» от 12 февраля 2018 года и законе №-ЗРУ-576 «О науке и научной деятельности», подписанный Президентом Республики Узбекистан 29 октября 2019 года, а также в других нормативно-правовых актах в данном направлении деятельности.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан – II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

